



Rus yozuvchisi, masalchi Ivan Andreyevich Krilov 1769-yilda tug'ilgan. Ivan Krilovning 230 dan ortiq masallari 9 ta to'plamda nashr ettirilgan.



So'zlarni hosil qiling.

**SHI+FO-TE+KOR-TE
O'+QI+N+TUV+CHI-N
RAS+QA+SOM-QA**

Shu kasblarni egallamoqchi bo'lgan inson qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?



Maqolni o'qib, mazmunini izohlang.

Qattiq baqirgan bilan qo'shiqchi bo'lmas.



Cho'rtanbaliq va mushuk

Ivan Krilov

Ish chatoqdir, gar etikdo'z somsa pishirsa,
Somsapaz-chi, qo'lda bigiz, kosiblik qilsa.

Bunaqada ish orqaga ketishi tayin,

Axir, atayin –

Bunday hollar ko'p martalab sinab ko'rilgan.

Kim birovning hunariga qo'l urar ekan,

Boshqalarga qaraganda bo'ladi sarkash,

Va har qanday ish deganni buzadi yakkash.

Bilmaganni bilganlardan so'rash o'rniga,

Behudaga u hammaga qolar kulguga.

O'tkir tishli cho'rtanbaliq qildiki orzu,

Mushuklarning hunarini egallasa u.

Ishqilib, u Mushukvoydan qildi iltimos:

O'zing bilan olib ket, deb sichqon oviga.

– E, qo'ysang-chi, bilasanmi, bu ishni biroz? –

Der Mushuk unga.

– Tag'in yana kulgu bo'lib o'tirma, oshnam.

– E, qo'yaver, og'aynijon, sichqon ekan-ku,

Undan katta baliqlarni ovlaganmiz biz.

– Unday bo'lsa, qani, ketdik! – Yo'l olishib tez,

Ombordagi sichqonlarni poylashdi ikkov.

Qorinni to'qlab, ko'nglin xushlab o'sha soatda

Mushuk shoshar oshnasidan olgani xabar.

Qarasaki, Cho'rtan yotar og'ir holatda,

Bo'g'ilgancha, og'zin "kap-kap" ochar-u yumar,
Jo'rasining ahvolini mushuk ko'rarkan,
Behush holda uni yana hovuzga sudrar.
Yodda tutgil! Senga bu ish saboqdir, Cho'rtan,
Bundan buyon ish qila ko'r sen kallang bilan.
To'g'ri kelmas ekan senga sichqon ovlamog',
Har hunarning o'z siri bor, buni anglab boq!



sarkash – birovga itoat etmaydigan, qaysar
yakkash – nuqul, hamisha, doim





1. Masal nima haqida ekan?
2. Masal qahramonlari haqida nima deya olasiz?
3. Cho'rtanbaliq nimani orzu qilibdi?
4. Cho'rtanbaliqning bunday holatga tushishiga nima sabab bo'ldi?
5. Muallif quyidagi satr orqali nima demoqchi?
"Har hunarning o'z siri bor, buni anglab boq!"
6. Masalning bosh g'oyasi nimada?



1. Masalni ifodali o'qing.
2. Masalda berilgan maqolning mazmunini izohlang.
3. Masaldan asosiy g'oya ifodalangan misralarni topib o'qing.
4. Masal mazmuni yuzasidan 2 ta savol tuzing.





Maqollarni o'qing va ularni masal mazmuniga bog'lang.

1. Bilmagan ishga urinma,
Urinib, tuzoqqa ilinma.
2. Miltiq ko'targan bilan ovchi bo'lmas,
Dag'dag'a solgan bilan – dovchi bo'lmas.
3. Har hunarning o'z siri bor,
Har ishning o'z yeri bor.



Yodda tuting!

Har bir kasbning o'ziga xos mashaqqati va fazilati bor. Qaysidir kasbni egallash uchun chuqur bilim, qaysidir kasbning ustasi bo'lish uchun esa tug'ma iste'dod yoki mahorat talab etiladi.



Masalni ifodali o'qing. Masal mazmuniga mos rasm chizing.